

**O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
1-son. 1-qism. Sentyabr-2025**

BADIIY ASARDA OBRAZ YARATISH MAHORATI

R.Ibragimova-Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va
agrotexnologiyalar instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston o‘zbek adabiy muhiti rivojiga katta haissa qo‘shgan yozuvchi Fayzulla Salaevning “Taqrdir marhamati yoki Saidnosir Saidkamalov fenomeni siri” fantastik qissasining mavzu jihatdan dolzarbligi va voqelikning tasvirlanishi, asar qahramonlari tasviri haqida ilmiy mushohadalar aks ettirilgan. Yozuvchi asarida ilgari surilgan mavzuning dolzarbligi va adabiy jarayondagi o‘rni xususida fikrlar o‘rin olgan.

Abstract: This article presents scholarly reflections on the thematic relevance, portrayal of reality, and character depictions in the science fiction novella "The Mercy of Fate or the Secret of the Saidnosir Saidkamalov Phenomenon" by Fayzulla Salaev, a writer who significantly contributed to the development of the Uzbek literary environment in Karakalpakstan. The paper explores the relevance of the theme advanced in the author's work and its place in the literary process.

Аннотация: В данной статье представлены научные размышления о тематической актуальности, изображении действительности и описании героев фантастической повести "Милость судьбы или тайна феномена Саидносира Саидкамалова" писателя Файзуллы Салаева, внесшего большой вклад в развитие узбекской литературной среды Каракалпакстана. В статье также отражены мысли об актуальности темы, выдвинутой в произведении писателя, и ее роли в литературном процессе.

Kalit so‘zlar: obraz, fantastik, kuzatuvchanlik, ruhiy kechinma, jarayon, mehr-oqibat

Keywords: image, fantasy, observation, emotional experience, process, compassion

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

Ключевые слова: образ, фантастика, наблюдательность, эмоциональный опыт, процесс, доброта

Badiiy asar har doim insonlar qalbidan chuqur joy olib asar qahramonlari haqida fikr mushohada qilishga chorlaydi. Yozuvchi F.Salaevning badiiy ijod sohasidagi yaratuvchanligi juda ko'plab kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan. Asarlarida hayotga bo'lgan qiziqish va kuzatuvchanlik aks etib turadi. Har bir asarda yagilikka talpingan yozuvchining ilk ijodi badiiy jurnal sahifalarida kitobxonlar e'tiboriga havola qilinarkan, juda ko'plab tanlovlarda e'tirof etilib, jurnal tahririyatlarining maqtoqlariga sazovor bo'lgani bejiz emas. Pedagog sifatida yoshlar bilan birga ishlashish butun hayoti davomida ikki avlod vakillari orasidagi kattagina farq, uning asarlarining asosiy mavzusiga aylandi desak to'g'riroq bo'ladi. Chunki qaysi asar qahramoni bo'lmasin albatta bilim, zakovat, odamiylik, ta'lim va tarbiya masalasi asarlarida shundoq bo'rtib ko'rinib turadi.

Yozuvchining mo'jazgina "Taqdir marhamati yoki Saidnosir Saidkamalov fenomeni siri" fantastik qissasining mavzu jihatdan dolzarbligi va voqelikning tasvirlanishi ham aynan zamon bilan hamnafas yozuvchining qalb kechinmalarini badiiy tarzda aks ettirib bergani bilan ahamiyatlidir. Asarni birinchi marta o'qigan kitobxon yozuvchi ushbu asarda e'tibor qaratmoqchi bo'lgan mavzu haqida umuman hayoliga ham keltirmaydi va aniqrog'i bunaqa hayotiy mavzu ekanligini tushunmaydi. Lekin asarni qayta qayta mutolaa qilinsa asarning tub mazmun mohiyati ochilib boradi. Birinchidan asarda to'qima deb aytilgan obrazning hayotga yaqinligi masalasi, ikkinchisi muammo deb olingan masalaning ayni hayot haqiqatligini ko'rsatib berayotgani masalasiga kitobxon diqqat qaratmaydi. Ushbu asarning juda dolzarbligi shundaki asarda tilga olingan fantastik hikoya mavzusi- mehrsizlik, oqibatsizlik, hayotning faqat zavqu ko'ngilochar damlardan iborat qilib ko'rsatilishi darhaqiqat keying davr yoshlari orasida urfga aylanib borayotgan kattagina illatlardan biri ekanligi asarga mavzu qilib olingan. Ayni hayotimizda sodir bo'layotgan ta'lim va tarbiya masalasining juda katta muammo darajasiga ko'talgani yoshlar bilan birgalikda qadam tashlayotgan keksa avlod vakili sifatida yozuvchining sinchkov naziridan chetda qolmagan va katta og'riqli nuqta sifatida muammoga aylanganligini ko'rishimiz mumkin. Asarda Uzroliklar nima uchun aynan yerliklar orasidan bir guruh odamlarni tanlagani masalasi diqqat markazida turadi, chunki aynan shu nuqtada asarning asl maqsadi ochilib beriladi. Bir zamonlar yerlik xalqlarning qanday mehr-oqibatli, baxtli

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

yashayotganligini kuzatgan o'zga sayyoraliklar insonlardan bu sirni o'rganish uchun o'z sayyoralariga olib ketishadi, suhbatlashadi va suhbat jarayonida o'z sayyoralarida "...zerikarli hayot tarzi, ota-onaning farzand bilan, farzandlarning ota-ona bilan hech ishi yo'q, hamma o'z bilganida qolmaydi, ta'lim-tarbiya, mehr-oqibat haqida gap bo'lishi mumkin emas" deb ta'riflagan jamiyati haqida maa'lumot berib, yerliklarning qanday qilib bir-birlariga shunchalar mehribon bo'lishlari mumkinligi masalasida tajriba o'tkazadilar. Yerliklarning orasidan eng mehribon, mehnatkash, oilaparvar, zabardast, to'g'riso'z insonlarning o'y hayollari, hayot tarzi, aql zakovatini tajriba sifatida o'rganib o'z xalqi qalbiga joylashni maqsad qilishgan olimlarning loyihasi misolida asar voqealari tasvirlab beriladi. Bu katta bir loyiha bo'lib juda rivojlangan texnologiya, toptoz havo, juda go'zal va faqat texnologiyalardan iborat bo'lgan yengil hayot, hech kim hech qanaqa og'ir mehnat qilmaydi va faqat yaratish uchun, yangiliklar uchun yashashi kerak bo'lgan, yoshlar esa hayotning qadrini bilmasdan faqat zavq shavqqa berilib, mas'uliyat, mehnat nimaligini, mehr-oqibat nimaligini bilmaydigan darajaga yetgan yangi avlod haqida qayg'urib gaapirib berishi, sayyorasidagi yoshlarning qolaversa sayyorasining hayotidan xavotir olgan bir guruh olimlarning olib borayotgan tadqiqot ishlarining ob'ekti sifatida Uzro sayyorasidagi halokatli hayot haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Uzroliklar yerlik eng yaxshi deb tanlab olgan insonlarining o'y hayollarini, ruhiy kechinmalarini elektron moslama orqali yozib olishadi. Buni o'z aholisiga tadbiq qilib ularda mehr-oqibat tuyg'usini qaytarish, yo'q bo'lib borayotgan oilani saqlab qolish, jabr ko'rgan oila a'zolarinining hayotlarini saqlab qolishda foydalanishni maqsad qilishadi. Buning evaziga esa o'sha yerliklarga Uzroliklarga xos bo'lgan bilim va zakovatni, aqlni joylab qo'yishadi. Shu sabab, xususan asar qahramoni Saidnosir Saidkamalov misli ko'rilmagan darajada bilimga ega bo'lib, yadro fizikasi bo'yicha juda katta tadqiqot ishlari olib boradi va yadro fizikasi fanining rivojiga hissa qo'shgan mashhur olimga aylanadi.

Yozuvchi bu asar real hayotiy voqeaga asoslangani haqida ishora qilib o'tadi, bu bir olim hayotida sodir bo'lgan nodir hodisa ekanligi xususida, ishonish yoki ishonmaslikni esa kitobxonga havola qiladi. Bu holat asarning qimmatini aks ettiradi, asar xulosasini kitobxon qiziqishiga havola qilganini ko'rsatadi. Xuddi chet el adabiyotidagi kabi asarni kitobxon o'zi istagancha xulosa qilishi mumkin. Asar haqida fikr mushohada yuritishu mumkin, baho berishi mumkin. Bu barcha asarlarda ham uchrayvermaydigan holatdir. Ya'ni kitobxon asarni o'zi tahlil qilib chiqishga majbur

**O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
1-son. 1-qism. Sentyabr-2025**

bo‘ladi, o‘ylanadi, fikrlashga majbur bo‘ladi, zero badiiy asarning asosiy vazifasi ham shundan iborat, kitobxonni o‘ylashga, fikrlashga majbur qilish. Asar mavzusining zamonamiz qahramonlari bo‘lmish yoshlar tarbiyasiga diqqat qaratishga turtku bo‘lar darajada ta’sir kuchiga ega voqelik tasvirlanganini alohida ta’kidlash joyiz. Chunki, adabiyotda davr mavzusi, davr qahramoni masalasi har doim e’tiborni tortuvchi jiddiy masalalardan biri bo‘lib qoladi. Yozuvchining mahorati haqida adabiyotshunos olim Q.Yo‘ldosh shunday fikr bildiradi: “Yozuvchi so‘zni isrof qilmaslikka, kam so‘zga ko‘proq mazmun yuklashga intiladi. So‘zga ehtiromli yondashuvi, unga salmoqli yuk orta bilishi va uning yordamida yorqin ruhiyat manzaralarini chiza olishi bilan e’tiborni tortadi.”

Yozuvchi har qanday asar mazmuni, mavzusi, qahramonini davr talabidan kelib chiqqan holda tanlasa va ifodalab bera olsa bu asar albatta kitobxonlar qalbidan chuqur joy oladi, munosib baholanadi. Shu nuqtai nazardan ushbu asardagi mavzu va asar qahramonlari davr muammolarini mohirona tarzda badiiy aks ettirganligi va ishonchliligi bilan adabiyot maydonida o‘z o‘rniga ega.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.F.Salaev. Qayting bulbullar. –Toshkent: “Muharrir”, 2011. –112 v
2. Q.Yo‘ldosh. Ochqich so‘z. –Тошкент: “Tafakkur”, 2019. –685 v